

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
24 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	

SOLIQLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINING INFORMATSION ASSIMETRIYAGA TA'SIRI

Babanazarova Nilufar Xolmatovna

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya Akademiyasi
tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy agentlar o'rtasida informatsion assimetriyani kuchaytiradigan beshta omildan asosiylari – soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash va uning natijasida moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishga urinish holatlari hamda ularni shakllantiruvchi omillar tadqiq etilgan. Xorijiy adabiyotlarning tizimli tahlili asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqdan bo'yin tovlashga urinish sabablari, shuningdek soliqdan qochish holatlarini aniqlashga e'tibor beriladigan jihatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, soliq agressivligi, informatsion (gorizontal va vertikal) assimetriya, naqd samarali soliq stavkasi, aksiyalar narxlari sinxronligi, kreativ buxgalteriya.

Abstract: This article investigates one of the five main factors that exacerbate informational asymmetry between economic agents - cases of tax evasion and, as a result, creative accounting, as well as the factors that lead to these practices. Based on a systematic analysis of foreign literature, the motivations driving tax evasion practices in developed and underdeveloped countries, red flags on the way of determining tax evasion are studied.

Keywords: tax evasion, tax aggressiveness, information asymmetry (horizontal and vertical), Cash effective tax rate (Cash ETR), GAAP effective tax rate, stock price synchronicity, creative accounting.

Аннотация: В данной статье исследуются основные из пяти факторов, усиливающих информационную асимметрию между экономическими агентами, – уклонение от уплаты налогов и связанные с этим попытки искажения финансовой отчетности, а также формирующие их причины. На основе системного анализа зарубежной литературы изучены причины уклонения от уплаты налогов в развитых и развивающихся странах, а также аспекты, на которые обращается внимание при выявлении случаев ухода от налогов.

Ключевые слова: уклонение от уплаты налогов, налоговая агрессивность, информационная (горизонтальная и вертикальная) асимметрия, эффективная налоговая ставка наличных средств, синхронность цен акций, креативная бухгалтерия.

KIRISH

Raqamlashtirish jarayonini kechiktirayotgan asosiy muammo texnologiyaning yetishmasligi bo'lsa-da, yetarli axborotga ega bo'lmaslik yoki informatsion assimetriyaning mavjudligi anchadan beri iqtisodiy agentlar munosabatlarini murakkablashtirib kelmoqda. Informatsion assimetriya – iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan tomonlardan birining boshqa tomon(lar)ga nisbatan ko'proq yoki yaxshiroq ma'lumotga ega bo'lishi holatidir. Bu holat iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, agentlar o'rtasida manipulyatsiya kuchayishiga, qarorlarning noto'g'ri qabul qilinishiga, bozorlarning to'liq ishlamasligiga, narxlarning noto'g'ri shakllanishiga, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va tomonlar o'rtasida ishonchsizlik kuchayib, investitsiyalar kamayishiga olib keladi.

Informatsion assimetriyaning gorizontal va vertikal turlari mavjud. Gorizontal informatsion assimetriya – bir xil darajadagi iqtisodiy agentlar (ya'ni, raqobatchilar, bozor ishtirokchilari yoki manfaatdor tomonlar) o'rtasidagi axborot tengsizlik holati. Vertikal informatsion assimetriya esa turli darajadagi ishtirokchilar (masalan, rahbar va ishchi, davlat va fuqarolar, kompaniya va mijoz) o'rtasidagi axborot tengsizlik holatini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval: Gorizontal va vertical informatsion assimetriya xususiyatlari

Aspekt	Gorizontal assimetriya	Vertikal assimetriya
Agentlar darajasi	Bir xil (raqobatchilar, xaridorlar)	Turli (rahbar-ishchi, davlat-korxona)
Tipik bozor misoli	Mahsulot bozori, xizmat bozori	Mehnat bozori, moliyaviy bozor, davlat sektori
Muammo turi	Sifat va narx haqida nomutanosib ma'lumot	Qarzga layoqat, niyat, harakatlar haqida ma'lumot
Yechim usullari	Baholash, reytinglar, raqobat tahlili	Monitoring, audit, kontrakt shartlari



Informatsion assimetriyani shakllantiruvchi asosiy omillar – shaffoflikning yetarli emasligi (to'liq bo'lmagan hisobotlar, loyiha risklarining to'liq ochiqqlanmaganligi, murakkab egalik strukturalari), axborotga egalik qilishdagi tengsizlik (boshqaruvchilar yoki insayderlarning aksiyadorlarga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi, yirik investorlarning mayda investorlarga qaraganda tadqiqot va prognozlardan ko'proq xabardor bo'lish imkoniyati), past moliyaviy savodxonlik yoki iqtisodiy bilim darajasi (masalan, qishloq aholisining moliyaviy texnologiyalar va axborot xavfsizligini tushunmagan holda foydalanishi, tadbirkorlarning qarz yoki kreditning adolatsiz shartlariga ko'nishi), tizimlashmagan boshqaruv va nazoratning mavjudligi (aniq belgilangan audit shartlari yo'qligi, korrupsioner mansabdor shaxslarning moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishga qarshilik qilmasligi – “creative accounting”, ya'ni kreativ buxgalteriya), shuningdek, soliqlardan bo'yin tovlash va kreativ buxgalteriya (foydani yoki offshor aktivlarni yashirish, qonunchilikdagi kamchiliklardan foydalanib daromad va xarajatlarni noto'g'ri tasniflash) holatlari bo'lishi mumkin.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlari hamda informatsion muhit o'rtasidagi bog'liqlik bir qator olimlar (Gallemore va Labro, 2015) tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, bunday bog'liqlikning sabab-oqibatlarini aniqlash juda murakkab hisoblanadi. Soliqlardan bo'yin tovlashning davlat budjetiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'siridan tashqari, u mavjud shaffoflik darajasi hamda informatsion assimetriyaga, tadbirkorlar o'rtasidagi ishonch darajasiga va mamlakatdagi umumiy biznes muhitiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash rivojlangan va rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda moliyaviy nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi (Epaphra, 2015; Yamen et al., 2018). Soliqlardan bo'yin tovlashning oqibatlaridan biri moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishga urinish (kreativ buxgalteriya)ning shakllanishi, yolg'on raqamlar sababli informatsion assimetriyaning kuchayishi va investorlarning moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayonining murakkablashishidir.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: soliq to'lovchilarning ataylab soliq deklaratsiyasini topshirmasligi, hisobotlarda daromadni kamaytirib, xarajatlarni ko'paytirib ko'rsatishi, amaliyotlarning bir qismini naqd pulda amalga oshirishi (Rashid, 2020). Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning qonuniy soliq summalarini to'lamaslik uchun noqonuniy vositalardan foydalanishi ham soliqlardan qochish sifatida ta'riflanadi (Alm, 2019). O'zbekiston soliq qonunchiligida “soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash deganda soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan boshqa tarzda qasddan bo'yin tovlash, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etmaslik yoki unga atayin noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish” tushuniladi. “Soliq to'lashdan bo'yin tovlash” va “soliq agressivligi” turli tushunchalar bo'lib, birinchisi soliqlardan qochishning legitim yo'llarini nazarda tutsa, ikkinchisi hisoblangan soliqni to'lashni kechiktirish yoki umuman to'lamaslikni ifodalaydi.

2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot hajmi YalMning taxminan 48%ga (245 trln UZS) to'g'ri kelgan. 2020-yil 1-iyundan boshlab hisobvara-fakturalarni elektron tarzda rasmiylashtirish yo'lga qo'yilgan. Elektron soliq xizmatlarining joriy etilishi hamda mayda savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini ro'yxatga olish choralari natijasida 2021-yilning yanvar-may oylarida davlat budjetiga soliq tushumlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan 32%ga oshgan. Bu o'sish soliq yukining oshishi hisobiga emas, balki yashirin iqtisodiyotdagi mablag'lar harakati qonuniylashtirilgani hisobiga amalga oshgan.

Bugungi kunda jismoniy shaxslarning soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki soliqlardan qochish holatlari bo'yicha ko'plab nazariy va empirik tadqiqotlar mavjud. Barcha mamlakatlar o'n yilliklar davomida soliqlardan bo'yin tovlash holatlariga qarshi kurashish masalalarini o'rganib, amaliyotga tatbiq etib kelmoqda. Soliq to'lovchilarning soliqlardan bosh tortish qarorlari mamlakatdagi jismoniy va yuridik shaxslar uchun biznes muhiti qanday ekanligiga bog'liq. Ular mamlakatdagi ushbu muhitni “yetarlicha yaxshi” deb hisoblasa, soliqlarni to'liq to'lashga moyil bo'ladilar (Reynolds, 1980).

Soliq tizimi faoliyatini yaxshilash va soliqlardan qochishga qarshi kurashish ishlari amalga oshirilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq stavkalari ham baland bo'ladi. Chunki rivojlanmagan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar maktab va kasalxonalar qurilishini, ijtimoiy to'lovlarni yoki asosiy infratuzilma qurilishini soliq tushumlarini ko'paytirmasdan amalga oshira olmaydi. Bunday mamlakatlarda hisoblangan nominal soliq summasi davlat budjeti uchun katta bo'lmasa-da, aylanma hajmi yetarlicha katta emasligi sababli, bitta soliq to'lovchiga tushadigan soliq yuki baland bo'ladi.

Soliq to'lashdan bosh tortish natijasida mamlakatda ichki murakkabliklar vujudga keladi va bu boshqa bir qator fiskal defitsitlar, yuqori inflyatsiya darajasi, samaradorlikning pastligi, tovarlar yetishmovchiligi, siyosiy noaniqlik, kuchsiz moliyaviy va nomoliyaviy institutlar shakllanishi kabi omillar ta'sirida yanada kuchayishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarida mavjud korrupsiya darajasi, yuqori inflyatsiya darajasi hamda katta soliq yuki bilan ajralib turadi (Islam et al., 2020). Yetarlicha rivojlanmagan mamlakatlarda katta miqdordagi norasmiy iqtisodiyotning mavjudligi, kuchsiz iqtisodiy asos hamda samarasiz soliq ma'murchiligi soliqqa tortiladigan YalMning past bo'lishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida hukumatning infrastrukturani moliyalashtirish imkoniyatini cheklaydi (World Bank, 2019). Bundan tashqari, ko'pchilik

rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqdan qochish holatlarini o'rganish amaliyoti ham cheklangan. Xususan, inflyatsiya, soliq stavkalari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, korrupsiya, jinoiy holatlar, mehnat etikasi, siyosiy barqarorlikning yo'qligi, valyuta tartibga solinishi kabi biznes yuritishga ta'sir qiluvchi omillarning soliqdan qochish holatlariga ta'siri hali yetarlicha o'rganilmagan.


MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1996-yilda Shvesiya banki James Mirrlees va William Vickrey'ni "Assimetrik informatsiya sharoitidagi rag'batlar nazariyasi", xususan daromadni soliqqa tortish va auksionlar yordamida resurslar taqsimotini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqqanlari uchun iqtisod fanlari bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlagan (Sandmo, 1999). Shundan buyon, assimetrik informatsiyaga ega bozorlarning zamonaviy nazariyalari ushbu mukofot laureatlarining ishlariga tayanib kelmoqda. Bundan tashqari, George Akerlof (Kaliforniya universiteti), Michael Spence (Stanford) va Joseph Stiglitz (Kolumbiya universiteti) o'z ishlarida ijtimoiy va iqtisodiy institutlar faoliyatini, ayniqsa shartnomalar turlarini tahlil qilganlar. Ular quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tovar sotuvchisi odatda sotib oluvchiga nisbatan ko'proq axborotga ega. Ishga yollanuvchi o'zining ish bilan bog'liq xususiyatlarini ish beruvchisidan ko'ra ko'proq biladi. Sug'urta polisi xaridori o'zining individual xatarlarini sug'urta kompaniyasiga qaraganda yaxshiroq biladi. Agar bozorning bir tarafi ikkinchi tarafga nisbatan ko'proq axborotga ega bo'lsa, bu realizatsiya qilinayotgan tovarning narxi, hajmi va sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ko'proq axborotga ega tomon o'z natijalarini yaxshilash uchun nimalar qilishi mumkin? Kamroq axborotga ega tomon nimalar qilishi mumkin?" Tadqiqotchilar aynan shu savollarga javob izlaganlar.

Ushbu novatorlik ishlari iqtisodchilarga oddiy qishloq xo'jaligidan tortib zamonaviy moliya bozorlarigacha ko'plab muammolarni o'rganishda muhim nazariy asos berdi. Masalan: nega ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit bozorlarida foiz stavkalari yuqori? Nega insonlar ikkilamchi bozordan mashina sotib olayotganda to'g'ridan-to'g'ri sotuvchiga emas, balki dilerga murojaat qiladi? Nega yirik yer egalari kambag'alroq ijarachilar bilan shartnomada hosilni yig'ishtirish bo'yicha barcha xatarlarni o'z zimmlariga olmaydi? Ushbu barcha holatlarning umumiy jihati shundaki, tomonlardan biri ikkinchisiga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega.

Soliq va soliq munosabatlariga oid adabiyotlar ichida asosiy nazariyalardan biri bu soliq to'lovchi va davlat o'rtasidagi "psixologik shartnoma" nazariyasidir. Unda soliq to'lovchilar davlatning o'z funksiyalarini bajarishi uchun soliqlar orqali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi (Pickhardt & Prinz, 2014). Feld va Frey (2007) esa soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida adolatli o'zaro majburiyatlarni o'rnatuvchi "psixologik soliq shartnomasi" konsepsiyasini ishlab chiqqanlar. Unga ko'ra, bir tomon qaysidir xizmatni ikkinchi tomonning qaysidir xizmati evaziga taqdim etadi. Aynan shu nazariyaga asosan, agar soliq to'lovchilar amalga oshirilayotgan institutsional boshqaruv sifatini past deb baholasa, soliqlarni to'lashga bo'lgan rag'batlarini yo'qotadilar (Rashid et al., 2022). Biroq ushbu nazariya soliqlardan qochishning individual aspektlarini hisobga olsa-da, iqtisodiy erkinlik va institutsional me'yorlarni hisobga olmaydi.

Soliqdan qochish holatlari bilan bog'liq ushbu cheklovlarni hisobga olgan holda, Nurunnabi (2018) soliqdan qochish amaliyotlarini "institutsional infrastruktura" iqtisodiy nazariyasi bilan tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, soliqlardan qochish murakkab jarayon bo'lib, ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu nazariya soliqdan qochishning iqtisodiy va noiqtisodiy omillarini uchta asosiy guruhga bo'ladi: soliq to'lovchilarning xulqi, davlat strukturasi hamda soliq organlari xulqi (1-rasm).





1-rasm: Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ijtimoiy-iqtisodiy nazariyasi modeli (Nurunnabi, 2018)

Ushbu soliqlardan qochish omillari ichida davlat eng yuqori o'rinda turadi. Asosiy o'yinchi sifatida davlat soliq to'lovchilar va soliq organlariga sharoit yaratib, turli xil erkinliklarni ta'minlovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Davlat soliq boshqaruvi, mehnatni tartibga solish, biznes erkinligi, pul erkinligi hamda fiskal erkinlikni ta'minlaydi.

Soliq organlari esa markaziy element sifatida ishtirok etib, soliqlarni yig'ishda samarali boshqaruvni ta'minlashi kerak. Soliq to'lovchilarning xulqi esa yuqoridagi davlat va soliq organlari xulqidan kelib chiqadi, shuningdek ularga mamlakatdagi madaniyat darajasi va axloqiy qadriyatlar ham ta'sir qiladi. Shu sababli, muvaffaqiyatli soliqqa tortish tizimi uchala tomonning samarali munosabatlariga bog'liq.

Mason va boshqalar (2020) ta'kidlashicha, jismoniy va yuridik shaxslar davlat tomonidan jarayonga keraksiz aralashuvlarni sezganlarida soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasi pasayadi. Androniceanu va boshqalar (2019) esa soliqlardan qochishga urinish holatlari hamda mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, agar soliq to'lovchilar biznes yuritishdagi cheklovlarning sababini yuqori stavkalar, murakkab qonunlar, nazorat yoki boshqaruv sifati pastligida deb bilsalar, ular o'zlarini rag'batsiz his qilib, qonunlarga rioya qilish hamda soliqlarni to'lashga kamroq moyillik bilan yondashadilar.

Alm (2019) va Epaphra (2015) soliq to'lash demotivatsiyasiga sabab bo'ladigan alohida iqtisodiy va noiqti-sodiy determinantlarni o'rganganlar. Alm va boshqalar (2016) soliqlardan qochishga asosan mamlakatda mavjud korrupsiya va jinoyatchilik darajasi sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, soliq to'lovchilar va soliq organlari mas'ul shaxslari o'rtasida norasmiy kelishuvlar mavjud bo'lsa, soliqlardan qochish holatlari ko'proq yuz beradi. McGillivray (2019) esa zamonaviy moliyaviy jinoyatlar hamda soliqlardan qochish o'rtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligini aniqlagan. Riahi-Belkaoui (2004) mamlakatlararo tadqiqotlarida biznesga cheklovlar, bozor strukturasi hamda iqtisodiy erkinlikning soliqlardan qochish holatlariga ta'sirini o'rganib, jinoiy faoliyatlarni asosiy determinant sifatida belgilagan. Epaphra (2015) ta'kidlashicha, soliq stavkasi ham soliqlardan qochishning asosiy omillaridan biridir. Yuqori korporativ soliq stavkalari firmalarni soliqlardan qochishga undaydi, ular soliq to'lovlarini optimallashtirish uchun maxsus mutaxassislarni yollaydi. Cerqueti va Copplier (2011) esa inflyatsi-yani soliqlardan qochishga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida o'rganganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada iqtisodiy agentlar o'rtasida informatsion assimetriyani kuchaytiruvchi omillardan biri sifa-tida soliqlardan bo'yin tovlash va moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatish holatlari adabiyotlarning tizimli tahlili asosida o'rganildi. Tahlilda moliyaviy hisobotlardagi oshkorlik, auditorlik mexanizmlari va nazorat institutlar-ining samaradorligi, shuningdek soliqqa oid siyosiy va institutsional muhit sifati asosiy ko'rsatkichlar sifatida qaraldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqlardan bo'yin tovlash amaliyotlari ham davlat, ham jamiyatda noroziliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, yirikroq kompaniyalar tezda davlat e'tiboriga tushadi. Soliqlardan bo'yin tovlash holatlari aniqlanishi korxona uchun reputatsiya risklarini ham yuzaga keltiradi [Austin & Wilson, 2017]. Ba'zi tadqiqotlar esa soliqlardan bo'yin tovlash holatlari aniqlanishi kompaniya rahbarlari (CEO) reputatsiyasiga zarar yetkazadi, deb hisoblaydi [Chyz & Gaertner, 2018]. O'rganishlar natijasida moliya bozori rivojlangan mamlakatlarda agressiv tarzda soliqlardan qochib keladigan kompaniyalar ko'rsatkichlari bozor ko'rsatkichlari bilan sinxron o'zgaradi, degan xulosa chiqarilgan. Bunday holatda investorlar kompaniya holatini to'g'ri tahlil qila olmaydilar. Shu sababli, investorlar moli-yalashtirishdan avval kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatga ega yoki ega emasligiga ham alohida urg'u beradilar. Chunki soliqlardan bo'yin tovlashning davlatga zararidan tashqari, kompaniya uchun jarima va reputatsiya xara-jatlari mavjud. Ba'zi tadqiqotlar soliqlardan bo'yin tovlash aniqlanishi natijasida aksiyalar daromadlilik darajasi tushishini kuzatgan [Abdelfattah va Aboud, 2020]. Ularning aniqlashicha, kompaniya qanchalik soliqlardan qochishga harakat qilsa, shunchalik korporativ ijtimoiy mas'uliyat darajasi past bo'ladi. Investorlar investitsiya kiritishdan oldin insiderlar axloqiy qadriyatlarini ham o'rganadilar.

Brooks va b. (2016)ning Buyuk Britaniyadagi izlanishlarida soliqlardan qochishga uringanlik haqidagi yangilik-ning paydo bo'lishi kompaniya aksiyalari narxlarining sezilarli miqdorda va uzoq muddat davomida tushishiga olib kelganligi kuzatilgan. Bunda paydo bo'lgan axborotning mazmuni ham muhim, ya'ni "soliqlarni vaqtida to'lamaganlik" yoki "soliqlardan qochishga urinish ehtimolligi" haqidagi axborotlar aksiyalar narxlariga ta'sir qilmagan. Mualliflar soliqlardan bo'yin tovlash darajasi mavjud ekanligini, shu me'yordan oshilganda, reputatsiyaga ta'sir qilishini ta'kidlaganlar.

Yamen va b. (2023) mamlakat institutsional muhitining soliqdan bo'yin tovlash holatlariga ta'sirini Yevropa Ittifoqining eski (Germaniya, Fransiya) va yangi (2004-yildan keyin qo'shilgan Sharqiy Yevropa mamlakatlari) a'zo mamlakatlari o'rtasida taqqoslama tahlil asosida o'rganganlar. Bunda institutsional muhit deganda asosan mamlakatdagi qonun ustuvorligi holati, boshqaruv sifati, korrupsiya nazorati hamda hukumat samaradorligi ko'rsatkichlari Jahon bankining [World Governance Indicators (WGI)] ko'rsatkichlaridan olingan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, institutlar faoliyatining sifati soliqdan qochish holatlariga salbiy sezilarli ta'sir etishi ta'kidlangan. Yangi a'zo mamlakatlarda sayoz qonunchilik tizimi, korrupsiyaning nisbatan ko'proq uchrashi hamda soliq ma'murchiligi samaradorligining pastligi sababli soliqdan bo'yin tovlash holatlari ko'proq kuzatilgan. Eng muhim omillar sifatida korrupsiya nazorati hamda qonun ustuvorligi ko'rsatkichlari keltirilgan. Aynan shu ko'rsatkichlar sayoz mamlakatlarda soliqdan qochish holatlari ko'proq uchrashiga sabab bo'lgan. Yangi a'zo mamlakatlar uchun soliqdan qochishni kamaytirish uchun institutsional sifatni oshirish zarurligi, soliq stavkalari va yangi soliq qoidalarini o'rnatishdan ko'ra muhimroq ekanligi ta'kidlangan. Bunda soliqdan bo'yin tovlash ko'rsatkichi sifatida mamlakatda mavjud "xufiyona" iqtisodiyotning hajmi olingan (2-rasm).



2-rasm: Institutsional muhit sifatining soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga ta'siri

Institutsional muhitning sifati oshishi soliqdan bo'yin tovlash uchun kam imkon qoldiradi va kompaniyalar hisobotlarida e'lon qilgan raqamlar bilan deyarli bir xil ishlaydilar, natijada to'langan soliqlar ham oshadi. Sayoz institutsional muhit sharoitida esa aksincha, hisobotlarda foyda o'zgartirib ko'rsatiladi, auditlardan qochish uchun "pora" berish amaliyoti ko'payadi, asosiy foyda esa "soliq jannatlari"ga ko'chiriladi. Ta'kidlanishicha, agar tarixiy institutsional sifat yomon bo'lsa va Cash ETR (joriy davrda to'langan soliqlar) ko'rsatkichi past bo'lsa, bu yuqori soliqdan bo'yin tovlash ehtimolligini bildiradi. Shu sababli, soliq komplaensini ta'minlashda institutsional sifatni oshirish muhimdir.

Kim & Li (2014) ta'kidlashlaricha, offshor hududlarda sho'balari mavjud kompaniyalarning aksiyalari narx-lari bozor narxlar bilan sinxron o'zgaradi. Ya'ni, bunday kompaniyalar aksiyalari narxlar e'tibor tortmaslik uchun sun'iy ravishda bozor bilan bir xil ushlab turiladi. Tabiiyki, hisobotlarda turlicha ijodkorlik qo'llaniladi. Offshor sho'basi mavjud bo'lmagan kompaniyalarda esa sinxronlik juda past bo'ladi va bu investorlar uchun kompaniyaning individual xususiyatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Offshor sho'balari mavjud kompaniyalar hisobotlarda qo'llagan yolg'onlari orqali informatsion assimetriyani oshiradilar, bu esa davlatga, o'zlariga va jamiyatga zarar yetkazadi.

Soliqdan bo'yin tovlash holati yoki belgilarini aniqlash ham murakkab jarayon bo'lib, signal sifatida ba'zida kompaniyaning "to'langan soliqlar" (Cash ETR) ko'rsatkichi olinadi. Kompaniyaning foyda nuqtayi nazaridan o'ziga tengdosh boshqa kompaniyalarga nisbatan to'lagan soliqlari juda kam bo'lsa, bu ham soliqdan qochish ehtimolligini bildiradi. To'langan soliqlar (Cash ETR) kompaniyaning ma'lum davr uchun haqiqatda to'lagan soliqlari bo'lib, u "hisoblangan soliqlar" (GAAP ETR – kechiktirilgan soliq to'lovlari ham hisobga oladi)dan farq qiladi.


$$\text{Cash ETR} = (\text{to'langan soliqlar}) / (\text{soliq to'langunga qadar foyda});$$

$$\text{GAAP ETR} = (\text{jami hisoblangan soliqlar (to'langan va to'lanmagan)}) / (\text{soliq to'langunga qadar foyda});$$

Tashkilot soliqdan qochishga uringanda, to'laydigan soliqlarini kechiktirilgan aktivlarga o'tkazishi va haqiqatda "tengdosh"lariga nisbatan kamroq soliq (Cash ETR) to'lashi mumkin. Biroq, kamroq to'laganlik bu soliqdan qochdi, degani emas. Cash ETR uzoq muddat davomida boshqa, xuddi shunaqa foyda ko'rsatkichlariga ega tashkilotlarga nisbatan past bo'lib kelsa, shubha ostiga olinadi. Bunday tashkilotlar tizimli ravishda foydani yashirayotgan bo'lishi, "soliq jannatlari"dan foydalanayotgan bo'lishi yoki agressiv soliq siyosati yuritayotgan bo'lishi mumkin. Offshor hududlarda sho'balari mavjud transmilliy kompaniyalarning Cash ETR ko'rsatkichi




odatda past bo'ladi. Korxonaning GAAP ETR va Cash ETR ko'rsatkichlari o'rtasidagi katta farq qonunchilik va korxona strategiyalaridagi vaqt farqlaridan yoki agressiv soliq taktikalari sababli kelib chiqishi mumkin. Past Cash ETR ko'rsatkichining o'zi soliqlardan qochishni isbotlab bermaydi. Buning uchun hisobotlar tahlil etilishi va aloqador shaxslar o'rganilishi lozim. Hanlon & Heitzman (2010) foydani yashirish imkoniyatiga ega, sayoz soliq nazoratiga ega korxonalarda ko'pincha past Cash ETR ko'rsatkichi bo'lishini va bu holat investorlarda yuqori informatsion assimetriya vujudga keltirishini tasdiqlaganlar (3-rasm).



3-rasm: Potensial soliqdan bo'yin tovlash holatini aniqlash jarayoni

Santos va Schiozer (2017) soliqlardan bo'yin tovlashning investorlar tomonidan aksiyalar bahosini shakllantirishdagi axborotlardan foydalanish amaliyotiga ta'sirini o'rganganlar. Bunda asosan, 2017-yilda qabul qilingan transmilliy kompaniyalarga korporativ soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi "Tax Cuts and Jobs Act" ("Tramp imtiyozlari") qonuni mezon qilib olingan. Ushbu qonunning maqsadi korporativ soliqlarni pasaytirish hisobiga investorlarning foydani offshore zonalarga yo'naltirishlarini kamaytirishga erishish bo'lgan (4-rasm).



4-rasm: Naqd Samarali soliq stavkasi (Cash Effective Tax Rate) ning 2017-yilgi soliq imtiyozlaridan oldingi va keyingi holati

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2017-yilgacha offshore sho'bagaga ega bo'lgan va bo'lmagan kompaniyalar ko'rsatkichlari deyarli parallel bo'lgan, biroq soliq imtiyozlaridan keyin offshore sho'balari mavjud korxonalar ko'rsatkichlari pasaygan. Bu esa ular hisobotlarida yolg'on ko'rsatishga hojat qolmaganini, kompaniyalar to'g'risini ko'rsata boshlaganini anglatishi mumkin.

Santos va Schiozer (2017) ta'kidlashicha, ushbu qonun kuchga kirguniga qadar transmilliy kompaniyalar aksiyalari narxlarining bozor narxlar bilan sinxronligi balandroq bo'lgan. Ya'ni, ushbu aksiyalar narxlarining o'zgarish jarayoni ular tegishli bo'lgan bozor yoki sanoatdagi narxlar o'zgarish darajasi bilan deyarli bir xil bo'lgan. Balandroq sinxronlik korxona aksiyasi narxining o'z ichki o'zgarishlaridan ko'ra, ko'proq bozordagi o'zgarishlarga qarab o'zgarishini bildiradi. Pastroq sinxronlik esa, aksincha, aksiya narxining korxonaning ichki o'zgarishlariga qarab o'zgarishini bildiradi. Biroq, yuqoridagi qonun kuchga kirib, soliqlar pasaytirilgach, aksiyalar narxlar sinxronligi ham pasaygan. Bundan transmilliy korporatsiyalar soliq stavkalari tushirilgunga qadar foydalarini yashirishga uringanlar va shaffoflikni pasaytiruvchi boshqa moliyaviy strategiyalarni qo'llaganlar, degan xulosa chiqarilgan. Natijada investorlar firmadagi fundamental o'zgarishlar haqida kam axborotga ega

bo'lganlar. Transmilliy kompaniyalarning soliqlardan qochish maqsadida ataylab hisobotlarda yetarli ma'lumot bermasligi yoki yolg'on ma'lumot berishi informatsion assimetriyani kuchaytirgan. Bu esa investorlarga tahlil va qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklar tug'dirgan. Soliq tizimidagi o'zgarishlar esa soliqdan qochishni kamaytirishga va shaffoflikni oshirishga xizmat qilganligi aniqlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishish uchun investitsiyalar samaradorligini oshirish zarur. Investitsiyalar ko'payishiga to'sqinlik qiladigan omillardan biri esa iqtisodiy agentlar o'rtasida informatsion assimetriyaning yuqori bo'lishidir. Informatsion assimetriyani shakllantiruvchi asosiy besh omildan biri bu soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash oqibatida moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatish holatidir. Bunday "kreativ" hisobotlar sababli investorlar tashkilotning individual xususiyatlarini fundamental tahlil eta olmaydilar. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga esa juda ko'p iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar ta'sir qiladi. Ushbu ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, optimallashtirilgach, informatsion assimetriya pasayishi, va bu bilan investitsiyalar hamda iqtisodiy o'sish rag'batlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 30.12.2019.
2. Gallemore, J., & Labro, E. (2015). The importance of the internal information environment for tax avoidance. *Journal of Accounting and Economics*, 60(1), 149-167.
3. Epaphra, M. (2015). Tax rates and tax evasion: Evidence from missing imports in Tanzania.
4. Yamen, A., Allam, A., Bani-Mustafa, A., & Uyar, A. (2018). Impact of institutional environmental quality on tax evasion: A comparative investigation of old versus new EU members. *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 32, 17-29.
5. Rashid, M. H. U. (2020). Taxpayers' attitude towards tax evasion in a developing country: do the demographic characteristics matter? *International Journal of Applied Behavioral Economics (IJABE)*, 9(2), 1-19.
6. Alm, J. (2019). What motivates tax compliance? *Journal of economic surveys*, 33(2), 353-388.
7. Reynolds, P. D. (1980). Doing Business with the People's Republic of China: Tax Considerations. In *Int'l L.* (Vol. 14, p. 49).
8. Islam, A., Rashid, M. H. U., Hossain, S. Z., & Hashmi, R. (2020). Public policies and tax evasion: evidence from SAARC countries. *Heliyon*, 6(11).
9. Sandmo, A. (1999). Asymmetric information and public economics: The Mirrlees-Vickrey Nobel prize. *Journal of Economic Perspectives*, 13(1), 165-180.
10. Pickhardt, M., & Prinz, A. (2014). Behavioral dynamics of tax evasion—A survey. *Journal of Economic Psychology*, 40, 1-19.
11. Feld, L. P., & Frey, B. S. (2007). Tax compliance as the result of a psychological tax contract: The role of incentives and responsive regulation. *Law & Policy*, 29(1), 102-120.
12. Rashid, M. H. U., Begum, F., Hossain, S. Z., & Said, J. (2024). Does CSR affect tax avoidance? Moderating role of political connections in Bangladesh banking sector. *Social Responsibility Journal*, 20(4), 719-739.
13. Nurunnabi, M. (2018). Accounting for accountability: A critical reflection on the private higher education in Bangladesh. *Administration & Society*, 50(3), 429-470.
14. Mason, P. D., Utke, S., & Williams, B. M. (2020). Why pay our fair share? How perceived influence over laws affects tax evasion. *The Journal of the American Taxation Association*, 42(1), 133-156.
15. McGillivray, M., & Morrissey, O. (2019). Aid illusion and public sector fiscal behaviour. In *Changing the conditions for development aid* (pp. 118-139). Routledge.
16. Riahi-Belkaoui, A. (2004). Relationship between tax compliance internationally and selected determinants of tax morale. *Journal of international accounting, auditing and taxation*, 13(2), 135-143.
17. Cerqueti, R., & Coppier, R. (2011). Economic growth, corruption and tax evasion. *Economic Modelling*, 28(1-2), 489-500.
18. Chyz, J. A., & Gaertner, F. B. (2018). Can paying "too much" or "too little" tax contribute to forced CEO turnover? *The Accounting Review*, 93(1), 103-130.
19. Austin, C. R., & Wilson, R. J. (2017). An examination of reputational costs and tax avoidance: Evidence from firms with valuable consumer brands. *The Journal of the American Taxation Association*, 39(1), 67-93.
20. Abdelfattah, T., & Aboud, A. (2020). Tax avoidance, corporate governance, and corporate social responsibility: The case of the Egyptian capital market. *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 38, 100304.
21. Brooks, C., Godfrey, C., Hillenbrand, C., & Money, K. (2016). Do investors care about corporate taxes? *Journal of Corporate Finance*, 38, 218-248.
22. Kim, J. B., & Li, T. (2014). Multinationals' offshore operations, tax avoidance, and firm-specific information flows: International evidence. *Journal of International Financial Management & Accounting*, 25(1), 38-89.
23. Santos, R. B. D., & Schiozer, R. F. Does Tax Avoidance Increase Informational Asymmetry? Evidence from the Tax Cuts and Jobs Act. Evidence from the Tax Cuts and Jobs Act.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100